# ILM VA UNING ISLOM HAMDA JAMIYAT RIVOJIDAGI O'RNI

**Valiyeva Mubinaxon Ulug'bek qizi**

Talaba, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

O'zbekiston, Toshkent shahri

**Sogukpinar Dilorom Alimovna**

"Jamoat fanlari" katta o'qituvchisi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti,

O'zbekiston, Toshkent shahri

Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20107793

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Islom dinida ilmning tutgan o'rni va uning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati tahlil qilinadi. Tadqiqot Qur'on oyatlari, hadislar hamda zamonaviy ilmiy manbalar asosida olib borilgan. Maqolada ilm tushunchasining nafaqat diniy, balki dunyoviy fanlarni ham qamrab olishi asoslab beriladi. Shuningdek, Islom sivilizatsiyasining oltin davridagi ilmiy yutuqlar va ularning jahon taraqqiyotiga qo'shgan hissasi yoritiladi. Zamonaviy globallashuv sharoitida ilmning ahamiyati, uning shaxs kamoloti va jamiyat rivojiga ta'siri ham tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ilm insonning ma'naviy va intellektual rivojlanishida, shuningdek , jamiyatning barqaror taraqqiyotida asosiy omil hisoblanadi.

**Kalit so'zlar:** Ilm, Islom, ta'lim, jamiyat, rivojlanish, sivilizatsiya, ilm-fan, ma'naviyat.

## Kirish

Zamonaviy dunyoda jamiyat taraqqiyoti bevosita ilm-fan va ta'lim tizimining rivojlanish darajasi bilan beldilanadi. Har qanday davlatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy yuksalishi, avvalo uning intellektual salohiyatiga bog'liqdir. Shu bois ilm va bilim masalasi barcha davrlarda dolzarb ahamiyat kasb etib kelgan.

Islom dinida esa ilmga alohida e'tibor qaratgan mukammal ta'limotlardan biri sifatida ajralib turadi. Qur'oni karimda ilm olish, tafakkur qilish va o'rganishga da'vat etuvchi ko'plab oyatlar mavjud . Xususan, ilk nozil bo'lgan oyatning "O'qi"degan buyruq bilan boshlanishi ilmning naqadar muhim ekanini anglatadi. Bu holat Islomda ilm inson hayotining ajralmas qismi ekanini ko'rsatadi.

Shuningdek, hadis manbalarida ham ilm olishga keng targ'ib qilingan bo'lib , unda ilm nafaqat diniy bilimlarni , balki inson hayoti uchun zarur bo'lgan barcha dunyoviy fanlarni ham qamrab olishi ta'kidlanadi. Shu jihatdan qaraganda , Islom ta'limoti ilmni har tomonlama rivojlanishning asosiy omili sifatida talqin qiladi.

Tarixiy manbalarga murojaat qilinsa, Islom sivilizatsiyasimimg oltin davrida ilm-fan yuksak darajada rivojlanganini ko'rish mumkin. Bu davrda musulmon olimlari turli fan sohalarida muhim kashfiyotlar qilib , jahon ilm-fani taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shganalar. Ushbu tarixiy tajriba ilm fva jamiyat rivoji o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni yana bir bor tasdiqlaydi.

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi-Islomda ilm tushunchasiimg mohiyatini ochib berish , uning shaxs kamoloti va jamiyati tarqqiyotidagi o'rnini ilmiy asosda tahlil qilish hamda zamonaviy davr bilan bog'liq holda yoritishdan iborat.

## Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada Islomda ilmning o'rnini va uning jamiyat taraqqiyotiga ta'sirini o'rganish maqsadida sifat tadqiqot yondashuvi qo'llanildi. Tadqiqot asosan nazariy manbalarni tahlil qilish va umumlashtirishga asoslangan. Tahlil metod yordamida Qur'oni karim oyatlari va hadislar o'rganilib, ularda ilmga berilgan e'tibor va uning mohiyati aniqlab berildi. Bu jarayonda ilm tushunchasining diniy asoslari chuqur tahlil qilindi . Shuningdek , tarixiy metod asosida Islom sivilizatsiyasining oltin davridagi ilm-fan rivoji ko'rib chiqildi. Ushbu yondashuv orqali o'sha davrda faoliyat yuritgan olimlarning ilmiy merosi va ularning jahin taraqqiyotiga qo'shgan hissasi hisoblanadi. Taqqosash metodi yordamida diniy va dunyoviy ilm o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik tahlil qilindi. Bu esa ilmning faqat ma'naviy eas, balki amaliy ahamiyatga ham ega ekanlini ko'rsatishga xizmat qildi. Nazariy umumlashtirish metodi orqali turli manbalardan olingan ma'lumotlar bir tizimga solinib, ilmning jamiyat rivojidagi o'rni yuzasidan umumiy xulosalar chiqarildi. Mazkur metodlar majmuasi tadqiqotning ilmiy asoslanganligini ta'minlab , mavzuni har tomonlama yoritishga imkon berdi.

**Asosiy qismi**

Islom ta'limotida ilm tushinchasi keng va chuqur ma'noga ega bo'lib, u faqatgina diniy bilimlar bilan chegaralanmaydi. Aksincha, ilm inson hayotining barcha jabhalarini qamrab oluvchi muhim omil sifatida talqin etiladi. Qur'oni karim va hadis manbalarida ilm olishga doimiy ravishda da'vat etilishi, Islomda bilimning yuksak qadriyat sifatida e'tirof etilganinin ko'rsatadi. Bu esa o'z navbatida ilmning nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyat taraqqiyotidagi muhim rolini beldilaydi. Ilm insonning shaxs sifatida shakllanishida asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Bilimli inson voqelikni chuqur anglaydi, hodisalarga tanqidiy yondashadi va mustaqil xulosa chiqarish qobiliyatiga ega bo'ladi. Bunday sifatlar esa insonning nafaqat individual hayotida, balki ijtimoiymuhitda ham faol va ma'suliyatli bo'lishini ta'minlaydi. Shu jihatdan qaraganda, ilm shaxs kamolotining poydevori sifatida namoyon bo'ladi.

Tarixiy tajriba ham ilm va taraqqiyot o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni tasdiqlaydi. Islom sivilizatsiyasining oltin davri sifatida e'tirof etilgan VII-XIII asrlarda ilm-fan misli ko'rilmagan darajada rivojlandi. Bu davrda musulmon olimlari turli fan sohalarida muhim ilmiy kashfiyotlar amalga oshirib, jahon sivilizatsiyasiga katta hissa qo'shdilar. Xususan, tibbiyot, matematika, astronomiya va falsafa kabi yo'nalishlarda yaratilgan ilmiy meros keyinchalik Yevropa Uyg'onish davrining shakllanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatdi. Bu holat ilmning universalligi va uning millat hamda hudud chegaralaridan tashqarida ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi. Islom tarixida faoliyat yuritgan olimlar ilmni nafaqat nazariy jihatdan ,balki amaliy jihatdan ham rivojlantirishga katta e'tibor qaratganlar. Ularning ilmiy izlanishlari inson salomatligi, texnik taraqqiyot va ijtimoiy hayotning yaxshilanishiga xizmat qilgan. Bu esa ilmning jamiyat farovonnligini ta'milashdagi o'rni naqadar muhim ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Zamonaviy islom tarixchisi Raghib Al-Sirjani o'z asarlarida ilmni jamiyat taraqqiyotining asosiy harakatlanuvchi kuchi sifatida talqin qiladi. Uning fikricha , ilm insonni faolikka undaydi, unda ma'suliyat hissininn shakllantiradi hamda jamiyatdagi ijobiy o'zgarishlarning yuzaga kelishiga zamin yaratdi.Shu bilan birga , ilm nafaqat shaxsiy manfaat uchun emas, balki umumiy farivonlik yo'lida xizmat qilishi lozimligi ta'kidlanadi. Bu qarashlat bugungi globallashuv sharoitida ayniqsa dolzarb hisoblanadi. Hozirgi davrda ilm-fan va texnologiyalarning kadal rivojlanishi jamiyat oldidagi yangi talab va vazifalarni qo'ymoqda.

Axborot oqimining keskin ortishi, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi bilim va ko'nikmalarning doimiy ravishda yangilanib borishini taqozo etadi. Shu sababli zamonaviy jamiyatda muvaffaqiyatga erishish uchun inson faqat mavjud bilimlar bilan cheklanib qolmasdan, balki doimiy o'rganish va o'z ustida ishlashga intilishi zarur.

O‘zbekistonda ham ta’lim tizimini rivojlantirish va yoshlarni qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bu esa mamlakat taraqqiyotida ilmning tutgan o‘rni naqadar muhim ekanini ko‘rsatadi. Ta’lim sifatini oshirish, xalqaro standartlarga mos kadrlar tayyorlash hamda yoshlarning ilmiy salohiyatini rivojlantirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishiga erishish mumkin.

Shu bilan birga, zamonaviy yoshlar orasida ilmga yuzaki yondashuv kabi muammolar ham uchrab turadi. Bu esa bilimlarning yetarli darajada chuqur o‘zlashtirilmasligiga olib keladi. Mazkur muammoni bartaraf etish uchun ta’lim jarayonida innovatsion metodlarni qo‘llash, mustaqil fikrlashni rivojlantirish va ilmiy izlanishlarga qiziqishni oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Umuman olganda, ilm nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotining ham muhim omili sifatida namoyon bo‘ladi. Uning rivoji ijtimoiy barqarorlik, iqtisodiy yuksalish va ma’naviy taraqqiyotning asosini tashkil etadi.

**Xulosa**

Ilm-fan va jamiyat rivoji o‘zaro chambarchas bog‘liq jarayonlardir. Ilmiy taraqqiyot jamiyatning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Bilim va innovatsiyalar asosida yangi texnologiyalar yaratiladi, bu esa insonlarning turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, jamiyatning rivojlanganlik darajasi ham ilm-fan taraqqiyotiga turtki bo‘ladi, chunki barqaror va bilimga asoslangan muhit ilmiy izlanishlar uchun qulay sharoit yaratadi. Bugungi globallashuv davrida esa ilmning ahamiyati yanada ortib bormoqda, chunki raqobatbardosh jamiyatlar faqat bilim va intellektual salohiyat orqali rivojlanadi.

Demak, ilm-fan va jamiyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni mustahkamlash har bir davlatning ustuvor vazifalaridan biri bo‘lishi lozim.

**Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Qur’an. Available at: https://quran.com
2. Sahih al-Bukhari. Available at: https://sunnah.com/bukhari
3. Al-Sirjani, Raghib. Islam and Civilization. Available at: https://www.goodreads.com
4. Mirziyoyev, Shavkat. Official speeches and materials. Available at: https://president.uz
5. Nasr, Seyyed Hossein. Islamic Science: An Illustrated Study. World Wisdom, 2006.
6. Saliba, George. Islamic Science and the Making of the European Renaissance. MIT Press, 2007.
7. OECD. Education and Economic Growth Report, 2020.